

AMIR TEMURNING KO'HNA TARIXI

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fakulteti
Filologiya fani yo'nalishi talabasi Tursinova Kibriyobonu Olimjon qizi
 Email pochta: kibriyobonu2227@gmail.com

Annotasiya: Ushbu ishda Sohibqiron Amir Temurning muhtasham hayoti va siyosiy yurishlari keng ko'lamda yoritib berilgan. Bu orqali uning harbiy siyosati, boshqarish tizimi va shu kabi bir qator islohotlari bilan tanishib chiqishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Oilasi, shaxsiyati va kelib chiqishi, bolalik va yoshlik yillari, siyosiy-harbiy hayoti, 3 yirik istilolari.

Amir Temur (Eski turkcha: تیمور امیر – Amir Temur) (1336-yil 9-aprel, 1405-yil 18-fevral) – o'rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillik eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo'mondonlaridan biri, Temuriylar uyg'onish davri asoschisi, ilm-fan, me'morchilik, San'at va Adabiyot homiysi sifatlarida tanishimiz mumkin.

Temurbek shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o'ttiz oltinchi yilda (8.04.1336), o'n ikki hayvonli Turk yilligiga ko'ra Sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xo'ja ilg'or qishlog'ida tulilgan. Ayricha amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz xonim Temurbekning tug'ilgan yilini o'n to'rtinchi yuz yillikning yigirmanchi yillariga to'g'ri kelishini kabi o'z ikkilanishli qarashlarini oldinga surib keladi va bu shubhalanishiga sabab qilib Temurbekning 1336-yilda tug'ilganligi to'g'risidagi yozuvlar uning davridan keyin yozilganini va uning davriga tegishli bir nechta manbalardagi voqealarda Temurbekning yoshi uning 1320-yillar oxirida tug'ilganini ko'rsatishini aytadi. Biroq birorta tarix kitoblarida Temurbekning tug'ilgan yili 1336-yil emas, balki boshqa yil ekanligi to'g'risida belgi umuman uchramaydi.

Otasi Amir Tarag'ay (o'rta chog' turkchasi Tarag'ay – qoraquyruq qushi) barlos qabilasining bekalaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urug'idan birining yetakchisi edi. Tarag'aybek Chig'atoy ulusining taniqli bekalaridan biri bo'lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Onasi Takina xotun va yoki Takina mohibegim to'g'risida ma'lumotlar kam. Zafarnoma (Yazdli Sharafiddin)da yolg'iz otigina so'zlanadi. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya, Angliya qirollariga elchi qilib yuborgan, Sultoniya bosh rohibi (archiepiscopus) Johannes de Galonifontibus Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini yozadi. Temurli saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan

Muyizz al-Ansab (Izzatli nasablar) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh bo'lgan Chig'atoy ulusining Yasaur qabilasidan ekanligi yoziladi. Temurbekning opasi Qutlug' Turkon og'o va singlisi Shirinbeka og'o edi. Ular Temurbekdan oldin o'lishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda ko'milishgan.

Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag'aybek o'z chog'ining odatlariga ko'ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o'q otishni o'rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo'rqmas bahodir bo'lib ulg'ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o'qimishsiz bo'lganligi to'g'risida kunbotar ellari o'rtasida yanglish qarash ular chindek o'rnashib qolgan. Temurbek o'zi to'g'risida kitobida 21 yoshga to'lganida otasining hosili yaxshi bo'lganini, qoramol va yilqilar ko'p bolalaganini, o'zi ularni 10 tadan qilib ishchilariga bo'lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to'g'risida bilgilar juda oz.

1358-yil Qazag'anbekning o'limidan so'ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi. Tug'luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlar topshiriladi. Tug'luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo'shin yig'adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek dushmani yengadi. 1361-yil martda Tug'luq Temur yana Movarounnahrda yurish qiladi. Temurbek yana Tug'luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrda xon qilib Ilyosxo'ja, Tug'luq Temurning o'g'li, tayinlanadi. Tug'luq Temur o'z yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi so'rovi va bergan so'zlariga ko'ra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Seyiston hokimi so'zini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yo'ldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qo'shini chekinadi. Temurbekning o'ng qo'li va o'ng oyog'i yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arig'i oldida, Abu Said, Mangli Bu'ga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Dashti Ko'lankaga keladi. Toshko'prik yaqinida Temurbek Yumkon o'g'li Temur, Sariq, Shingum va Tug'luq Xo'jaga qarshi

urushadi. Temurbek dushmani yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxo‘ja bilan to‘qnashishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qobulshoh O‘g‘lonni Movarounnahrğa xon qilib ko‘taradi. Ilyosxo‘ja yana Movarounnahrğa yurish qiladi. 1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo‘yida Loy jangi bo‘lib o‘tadi. Temurbek bo‘linmasi qarshi tomon bo‘linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo‘ladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yag‘mo etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo‘lga olib Suyurg‘otmish O‘g‘lonni xon qilib ko‘taradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi.

Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga 3 marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda „3 yillik“, „5 yillik“ va „7 yillik“ urushlar nomi bilan mashhur. 3 yirik (1386 – 1388) harbiy istilolar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko‘li atrofidagi yerlar egallandi.

3 yillik istilo

Amir Temur shu bilan birga shimoliy-g‘arbdan, ya’ni Oltin O‘rda tomonidan bo‘layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To‘xtamishga qarshi 3 marta qo‘shin tortishga majbur bo‘ldi. U 1389-yilda Dizaq (Jizzax)ning Achchiq mavzeida, 1391-yilning 18-iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari orasida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosi vodiysida (qarang Qunduzcha jangi) va nihoyat, 1395-yilda (28 fevral) Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo‘iida To‘xtamish qo‘shiniga qaqshatqich zarba beradi (qarang Terek daryosi bo‘yidagi jang). Amir Temur harbiy yurishlari natijasida Quyi Idil (Volga) viloyatlari, Saroy Berka, Saroychik va Hojitarxon (Astraxon) kabi shaharlar g‘orat qilindi. Amir Temur To‘xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha bordi va Yelets shahrini ishg‘ol qildi. Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temurning Moskva istilosini shunday ta’riflaydi: „Sohibqiron Maskavga sorikim, Rusning shaharlaridan erdi, tavajjuq qildi. Anda yetkonda nusratshi’or cheriki ul viloyatni (shahar va atrofini) chobtilar va andag‘i hokimlarni tobe’ qildi. Va cherikning eliklariga sonsiz mol tushti...“Bu urushda Azaq (Azov), Kuban va Cherkas yerlari ham kuchli aziyat chekegandi. Qizig‘i shundaki, Amir Temur Idilning Turotur kechuvi bo‘yida O‘rusxonning o‘g‘li Quyrichoq o‘g‘lonni chaqirtirib, unga qo‘lga kiritilgan sobiq Jo‘chi ulusini in’om etdi. Rossiya tarixchilari B. D. Grekov va A. Yu. Yakubovskiy parnmnt yozishlaricha, Amir

Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi, faqat Markaziy Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek tarqoq Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan.

5 yillik istilo

Shundan so‘ng Amir Temur butun e‘tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U besh yillik (1392 – 1396) urush davomida G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloiriylar sulolasining hukmronligi barham topdi. Amir Temurning Hindiston istilosi (1398-yil may – 1399-yil mart) qariyb 11 oy davom etdi. Amir Temur Hindistondan katta o‘lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytdi. O‘ljalarning bir qismi qo‘shinga taqsimlab berildi, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi.

7 yillik istilo

Amir Temurning 1399 – 1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba‘albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi (qad. Kappadokiya) bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g‘alaba qozondi. Turk sultoni asirga olindi. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o‘g‘illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga tushdilar. So‘ng, Amir Temur Anadolu yarim orolini egallab, O‘rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi. So‘ngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim bo‘ldilar, Misr ham o‘z itoatkorligini izhor etdi. Amir Temur Anqara, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini egallab, Vizantiya va butun nasoro olamining Boyazidga yig‘ib bergan bojlaridan iborat katta boylikni qo‘lga kiritdi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o‘zi kattagina karvonga yuk bo‘lgan. Bandi qilingan Boyazid o‘rdugohga olib kelingach, Amir Temur unga hurmat va ehtirom ko‘rsatdi. Uning vafotidan so‘ng (1403-yil 9-mart) esa vorislariga himmat ko‘zi bilan boqib, ularga beqiyos muruvvatlar qildi. Chunonchi Boyazidning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinladi. Edirne (Adrianopol) shahri uning poytaxti qilib belgilandi. Anadoluning shimoliy-g‘arbiy qismi suyurg‘ol sifatida Iso Chalabiyga in‘om qilinib, Bursa shahri uning poytaxtiga aylantirildi. Usmoniy turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni Muso Chalabiyga topshirdi.

Amir Temur Usmoniy turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo‘lmagan, chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli

turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380 – 1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399 – 1407) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga islom dinini yoymoqchi bo'lgan Usmoniy turklar davlatiga zarba berib, Yevropadagi nasroniylarning xaloskoriga aylangan edi.

Amir Temurning hokimiyat boshqaruvi chog'ida juda ko'p haybiy yurishlar va katta janglarni boshidan kechirgan.

Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni boshshahar etib belgilaydi. 1370-yil kuzida yirik Qurultoy o'tkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 bora yurish qiladi. Hevak o'lkasi va Kot shahri aslan Chig'atoy ulusining yerlari bo'lsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi So'fiylar yig'ar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni ko'zlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini qiladi. Temurbek Qot qal'asini qamal qiladi va qal'ani egallaydi. Temurbek Qovun arig'iining oldida Husayn So'fiy bilan urushib dushmanni yengadi. Husayn So'fiy yengilishdan so'ng Xorazmga qarab chekinadi va o'sha yerda o'ladi. Temurbek Yusuf So'fiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytish ortidan Yusuf So'fiy Kotni talaydi. Temurbek 2-bora Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudachilik qilish uchun bu gal Xorazmni urmaydi. 1375-yil yanvarda Temurbek Jeta tomon 3-bora yurish qiladi. Ili daryosi bo'yida urushda Temurbek dushmanni yengadi. 1376-yil Temurbek Xorazm tomon 3-yurishini qiladi. Biroq bu yurish chog'ida Sari Bug'a va Odilshoh yovlik yo'liga o'tgani uchun ortiga qaytadi. Keyi 4-bora Jeta ga yurish qiladi. Temurbek qo'shini Jeta xoni Qamariddinni to'la yengadi. Shu yili to'ng'ich o'g'li Jahongir Temuro'g'li o'ladi. Temurbek 5-bora Jeta tomon yuradi va To'qtamish o'g'lon bilan uchrashadi. To'qtamishga Sig'noq va Sabron o'lkalarini beradi. 1376-yilning o'zida Temurbek O'risxon tomon qo'shin tortadi. Jayron Qamishda yog'iy qo'shinini yengadi. 1377-yilda Samarqandga qaytadi. Temurbek qaytishi ortidan To'qtamish hokimiyati yiqiladi. Temurbek To'qtamishni yana qo'llaydi va qurol-yaroq bilan ta'minlaydi. 1379-yil Temurbek Xorazm tomon 4-bora yurish qiladi. Xorazm qal'a qamalida Yusuf So'fiy Temurbek bilan birga-bir urushishni so'raydi. Temurbek so'rovni sharaf bilib yolg'iz o'zi qal'a ostiga boradi. Biroq Yusuf So'fiy tashqariga chiqmaydi. Temurbek qal'ani egallaydi. 1381-yilda Temurbek Eron o'lkasi tomon qo'shin tortadi. Temurbek ketma-ket Fushanj qal'asini va Hirotni o'z davlati yerlariga qo'shib oladi. Keyin Samarqandga qaytadi. 1382-yil boshlarida Xuroson tomon yurish qiladi. Kalot qal'asi va Tushriz qal'asini egallaydi. Ortidan Mozandaron Tomon yo'l oladi. Biroq Alibekning Kalotga yurishi yuzidan Temurbek orqaga qaytadi. Keyin Samarqandga qaytadi. 1383-yil yozida Temurbekning xotini Dilshod og'o va egachisi Qutlug' Turkon og'o o'ladi. Jeta tomon qo'shin jo'natgan Amir Temur o'zi Mozandaron tomon yuradi. 1383-yil kuzida Sabzavor qal'asi yiqitildi. Temurbek Seyiston tomon yo'l oladi. Rizo qal'a qamalida

Shoh Qutbiddinni yengadi va Seyistonni oladi. Keyin Bo'st tomon yuradi. Qal'ayi Toqni va Bo'st qal'asini egallaydi. Hirmand daryosi bo'ylab yurib Hazorbaro qal'asi(dinsizlar qal'asi) va Dahna qal'asini egallaydi. Qaytishda Afg'oniyalar bilan urushda dushmani yengadi. Seyiston va Zobuliston qo'shilishi ortidan Temurbek Samarqandga qaytib keladi. 1384-yil bahorida qayta Mozandaron tomon yo'l oladi. 1385-yil yozida Sultoniya shahrini oladi. So'ngra Omul va Sori o'lkalarini qo'l ostiga kiritadi va Samarqandga qaytadi. Temurbekning Eron o'lkalaridan qaytishi ortidan To'qtamishxon Eronga bostirib kiradi va shahar va qishloqlarni talaydi. 1386-yil o'tmishda 3-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. Luristonda qaroqchilar urilishidan keyin Ozarbayjon yerlari tomon yo'l oladi. Sulton Ahmad Tabrizni tashlab qochishi yuzidan Temurbek Tabrizni oladi. Gurjistonga qarab yurishda Garni, Sarmoluka va Qars qal'alarini oladi. Gurjiston boshshahri Tiflis (Tbilisi)ni o'zga dinlilarga qarshi kurashib fath qiladi. Temurbek G'oziylik urushidan keyin Qorabog'ga boradi. 1387-yil To'qtamish Kaspiy (Xorazm dengizi)ning kunbotari oldidan o'tgan yo'l orqali Ozarbayjonga qarab qarab qo'shin jo'natadi. Temurbek qo'shini ol qo'shin g'ajirchilari To'qtamish qo'shinini uradi. Amir Temur karvontalar Turkman qaroqchilarini yo'qotish uchun Oydin, Avniq va Arzirum qal'arini yiqitadi. Keyin Van va Vaston o'lkalari tomon yo'l oladi. Van qal'a qamali 20 kun cho'ziladi va qal'a egallanadi. Kurdiston va Urmiya Turkiga o'z noiblari belgilaydi. 1387-yil kuzida Fors o'lkasiga qarab yuradi. Xamadon o'lkasidan o'tib Isfahon qal'asini egallaydi. Biroq Isfahonliklarning yanglish urushi sabab Isfahon shahri eli qirg'in qilinadi. Shu yil oxirida Sheroz shahri olinadi. Biroq Temurbek To'qtamishxonning ontlashmani buzib Movorounnahrda qilgan yurishi ketidan Samarqandga qaytadi. 1388-yil ko'klam chog'ida Amir Temur Xorazmga 5-gal yurish qiladi. Xorazm qal'asini buzib ichiga arpa ektiradi va shahar elini Samarqandga ko'chirtiradi. So'ngra To'qtamishxon tomon qo'shin tortib boradi. 1389-yil Temurbekning izidan kelayotganini bilib qolgan To'qtamishxon ortiga chekinib ketadi. Kengash bilan so'zlashgan Temurbek Jeta tomon 5 chi yurishini qiladi. 1389-yil yozida Jeta qo'shinlarini yengib Samarqandga qaytib keladi. 1391-yil Dashti Qipchoq tomon yurish qiladi. Amir Temur 18/06/1391 Qunduzcha urushida To'qtamishxon bilan to'qnashadi. Qo'shinini yetti bo'lak qilib tizgan Temurbek yog'iyini yengadi. 1392-yil ko'klam boshida Samarqandga qaytadi. 1392-yil yozida o'tmishda 5-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. Omul va Gitisiston qal'asi olinadi. Temurbek 1393-yil boshida Iroq tomon qarab yuradi. Olinmas deb atalgan Safed qal'asi olinadi. Potila yeri yaqinidagi urushda Temurbek Fors o'lkasining shohi Shoh Mansurni yengadi va Shoh Mansurning boshi kesiladi. Temurbek Eron o'lkasi noibligini Muzaffar oilasidan olib o'z beklariga bo'lib beradi. 1393-yil kuzida Bog'dodga yetib keladi. Sulton Ahmad Jaloyir urushsiz qal'ani tashlab qochadi va Temurbek Bog'dodni egallaydi. 1393-yil qish boshida olinmas deb atalgan Tikrit qal'asi olinadi. Ortidan Diyorbakr tomon

jo'nab u yerda o'z yo'rig'ini o'rnatadi. 1394-yil Ruha(Urfa) tomon borib u yerda o'z yo'rig'ini o'rnatadi. 1394-yil yanvarda Temurbekning ikkinchi o'g'li Umarshayx o'ladi. Mardin qal'asi olinadi. Ortidan 3-4 ming yildan buyon olinmagan Homid qal'asi olinadi. 14.07.1394 da Avniq qal'asi yiqitiladi. Amir Temur Gurjiston o'zgadinlilari ustiga yana bir bor yurish qilib talaydi. Ortidan To'qtamishxon ustiga yurish qiladi. 15.04.1395 da Tarak daryosi yoqasida Temurbek To'qtamish bilan to'qnashadi. Temurbek To'qtamishxonni tamoman yengadi. Temurbek Jo'jixon ulusini urish uchun O'rus tomon yuradi. Ulus boshshahri Saroy Botu qal'a shahri qulatiladi. Ortidan Qorasuv(Voronej) otli O'rus viloyati yag'molanadi. Keyin Maskav(Moskva) shahri tomon yuradi va u yerni talaydi. Temurbek Ozoq(Azov) qal'asini oladi. 1396-yil Temurbek Elburzko'hga qaytadi. Olinmas deb atalgan Kula va Tovus qal'alarini oladi. Temurbek Kavkaz va shimoldagi o'lkalarda o'z hokimiyatini o'rnatgandan keyin 18.07.1396 Hamadondan Samarqand tomon yo'lga tushadi. 1398-yil Amir Temur Chinga yurish qilishni istagan bo'lsada kengash so'ziga ko'ra Hindiston tomon yuradi. Musulmonlar so'rovi sabab 1398-yil yoz boshlarida Katur gabr(kofir)larini yo'q etadi. 1398-yil sentabrda Puriyon Afg'onlarini yengadi. 25.10.1398 da Shohnavoz qal'asi olinadi. Ketidan Batnir, Sarasati, Fathobod va Amurani kentlari yerlari davlat yerlariga qo'shib olinadi. Temurbek 1 oy ichida 20 dan ortiq qal'a qamallari va urushlarda yutadi. 16-17.12.1398 Dehli sultoni Mahmud Sulton bilan to'qnashadi. Temurbek Filli Mahmud Sulton qo'shinlarini sohib yanchib tashlaydi. 18.12.1398 da Dehlida Temurlilar davlati bayrog'i ilinadi. Temurbek 10.01.1399 Gang daryosi bo'yida gabrlarga qarshi urushadi va dushmanni yengadi. 12.01.1399 da bir kunda 3 bora urushadi va yovlarining barisini yengadi. 14.10.1399 da Hindiston yurishidan qayta boshlaydi. Suvalak tog'ida dinsizlarga qarshi va Jammu o'lkasida o'zgadinlilarga qarshi g'azo qiladi. Amir Temur 28.04.1399 da Samarqandga kirib keladi. Shu yil kuzida o'tmishda 7-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. 1400-yilda Gurjiston tomon yurish qiladi. Zarit va Svanet qal'alarini egallaydi. Bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatib ortga qaytadi. Shom o'lkasi tomon yo'l olgan Temurbek Bihishti va Ayntob qal'alarini oladi. 28.10.1400 da Temurbek Halab qal'asini oladi. Xama, Xams va Ba'albak kentlari egallanadi.

05.01.1401 da Damashq urushida Temurbek Mamluq davlati sultoni Farajni uzil-kesil . Keyin Shomdan Iroq tomon yuradi. 09.07.1401 da Temurbek Bog'dodni qayta egallaydi va buzdiradi. Keyin Tabriz tomon yuradi. Undan chiqib Qorabog' tomon yuradi. Bu orada Usmonli bilan orasi sovigan Temurbek Rum(Anado'li, bugungi Turkiya) tomon yuradi. Shu qishda Tartum qal'asi ortidan Qamoh va Horun qal'alarini oladi. Qaysariya va Anquriya(Anqara) qal'a qamallari chog'ida Boyazid Yildirim qo'shini bilan Anqara yaqiniga kelganini bilgan Temurbek Boyazitga qarshi qo'shinini tizadi. 20.07.1402 Anqara urushida Temurbek Boyazid Yildirimni uzil-kesil yengadi. Yengish yorliqlari dunyoning 4 tomoniga yuboriladi. Birin-ketin Rumdagi

shaharlar egallanadi. 02.12.1402 da Amir Temur Izmir tomon yuradi. 14 kundan qisqa chog'da 7 yil Usmonli davlati ola bilmagan Izmir qal'asi olinadi. Ortidan Egridir va Nasibin qal'alari olinadi. Temurbek Rum viloyatidan chiqib Gurjiston tomon yuradi. Umuman olib bo'lmas deb atalgan Kartin qal'asini oladi. Qishni Qorabog'da o'tqazgan Temurbek 26.03.1404 da Samarqand tomon yuradi. 19.05.1404 da yana biror bora umuman olinmagan qal'a Feruzko'h qal'asi 2 kunda oladi. 1404-yil iyulda Amir Temur Samarqandga kelib tushadi. 1405-yil Xitoyni olishni istagan Temurbek Xitoy tomon yurishini boshlaydi. 14.01.1405 da O'trorga kelib tushadi. Biroq yurish yakuniga yetmaydi. 1405-yil 18-fevralida ayozning ayozli kunlarida Temurbek O'trorda hayotdan ko'z yumadi. 23.02.1405 da Sohobqiron Amir Temur Samarqandda Go'ri Amirda ko'miladi.

Amir Temur (Sohobqiron) tarixda katta shaxs sifatida tanilgan va uning yurishlari va janglari O'rta Osiyo va uning atrofidagi hududlarda kuchli ta'sir qoldirgan. 1387-yildan 1405-yilgacha bo'lgan davrda, Temur o'zining strategik rejalari, jangovar qobiliyatlari va qo'shinlarini boshqarishdagi mahorati bilan keng hududlarni zabt etdi. Uning harbiy yurishlari O'rta Osiyo, Fors, Kavkaz, Hindiston, va Turkiyadagi ko'plab shaharlar va mamlakatlar ustidan hukmronlik o'rnatishiga olib keldi. Temurning janglari juda ko'p madaniy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Misol uchun, Samarqand uning hukmronligi davrida ilm-fan, san'at va arxitektura markaziga aylandi. Shuningdek, Temur o'zining harbiy yurishlari bilan ko'plab xalqlarga tasir o'tkazdi, shu jumladan, Usmonli Turkiyasi, Mog'uliston va boshqa ko'plab davlatlarga. Biroq, Temurning kuchli imperiyasi qisqa muddatda shakllanib, uning o'limidan so'ng tezda parchalanib ketdi. Temurning yurishlari va hukmronligi tarixiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning izlari ayniqsa harbiy strategiya va boshqaruv sohalarida qoldi. Shu bilan birga, Temur tarixdagi murakkab va ko'plab qarama-qarshiliklarga ega shaxs sifatida qoldi: bir tomondan u kuchli hukmdor va strateg, boshqalaridan esa, uning qo'l ostidagi hududlardagi qonli janglar va qatliomlar tarixda tanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marozzi, J. (2004). Andoza.
2. Meri, J. W. (2005). Medieval Islamic Civilization. Routledge. ISBN: 978-0415966900.
3. Britannica. (2022, sentyabr 28). Timur | Biography, Conquests, Empire, & Facts. <https://www.britannica.com>.
4. Xafi Xon Nizom-ul-Mulkiy. (1985). Muntaxab-al Lubab (Vol. I, p. 49). Lahore nashriyoti.